



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

qilishda tuzilgan rejalar, yaratilayotgan imkoniyatlar o'z natijasini beradi degan umiddamiz. Maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan maktablar an'alarini, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash kabi dolzarb vazifalarni bajarish maqsadida O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etilganligi quvonarli hol, albatta. Chunki, o'zbek mumtoz musiqasi o'tmishdan o'zining teran ma'noga ega ekanligi, murakkab-umukammalligi va beqiyos an'analarni o'zida mujassam etganligi bilan o'zga xalqlar musiqasidan ajralib turadi. Ushbu musiqa ijodiyotida xalqimizning o'tmish an'analari, boy va teran ma'nolarga asoslangan tarixi muhirlangan. Yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod ongiga uning buyukligi, ota-bobolarimizdan meros ekanligini singdirish ham bizning zimmamizga ulkan mas'uliyatni yuklaydi⁷¹.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, hozirgi kunda o'zbek xalqining madaniy boyligi hisoblangan va albatta, mumtoz musiqamizning asosini tashkil etgan maqomlarimizni o'z holicha kelgusi avlodga yetkazib berish, uning ruhiyatimizga ta'sirini namoyon etish barchamizning asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Yosh avlod ongida mumtoz musiqalarimizning badiiy-estetik zavqini singdirish va tafakkurini shakllantirish aynan biz musiqa sohasi vakillarining burchi ekanligini unutmagan holda bu borada yangicha g'oyalar ishlab chiqishimiz lozim. Ana shundagina mumtoz musiqamiz buguni va kelajagi porloq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sonli qaroridan.
2. Mannopov S. (2004). O'zbek xalq musiqasi madaniyati. Toshkent., "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
3. Ismoilova M. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish. Toshkent; 2000-yil.
4. Ro'ziyeva M. Yosh xonandalarning kamoloti. Toshkent, 2003-yil.

DUTOR IJROCHILIGIDA "USTOZ – SHOGIRD" AN'ANASI

G.HASANOVA,

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti magistranti,

Ilmiy rahbar: G'.M.XUDOYEV,

O'zDSMI professori v.b., san'atshunoslik fanlari falsafa doktori.

Annotatsiya. Mazkur maqolada an'anaviy dutor ijrochiligida "Ustoz-shogird" an'analari vositasida an'anaviy dutor sozini o'zlashtirishning o'ziga xos uslublari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, dutorchi sozanda ustozlarning ijodiy uslublarni o'rganishga doir qator metodlar atroflicha tahliliy qiyoslanadi

Kalit so'zlar: dutor, zarb, soz, cholg'u, ohang, an'ana, musiqa.

Xalqimizning madaniy hayoti sozandalikka, jumladan dutor chalishga o'rgatish va o'rganish qadim qadimdan rasm bo'lgan.

⁷¹ 1.M.Ismoilova. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish. Toshkent; 2000-yil, 21-bet.

An'anaviy qonun - qoidalar, ya'ni ustoz-shogird tizimi asosida amalga oshirilgan. Ushbu omil ham azaldan xalqimizni musiqiy cholg'u kuylariga katta e'tibor berganligidan dalolat beradi. Shu bois, ustoz - shogirdchilik musiqaviy tarbiya uslubi avlodan-avlodga kelib muhim an'anaga aylandi.

Musiqiy cholg'ularda chalish usullarini o'rgatish o'rganish uchun asosiy qonuniyatlarini anglash an'analarni takkik qilishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xususan, ta'lim berishning ushbu uslubi an'anaviy madaniyatimizning tarkibiy qismini tashqil etadi. Musiqa madaniyatimizga sof ma'nodagi muallim ustozning o'zi ayni paytda u ham murabbiy ham sozandalik san'atini o'zida mujassamlashtirilgan shaxe hisoblanadi. Shu tufayli o'rgatish- o'rganish jarayoni o'ziga xos sir-asrorlarini bilmay turib, bu an'ananing xususiyatlarini tulaligicha anglab ololmaymiz.

An'anaviy madaniyatning muayyan xususiyatlari san'at shakllari va janrlari an'anaviy o'rganish - o'rgatish jarayonlarida ham o'z aksini topadi.

Mazkur jarayonni tizim sifatida o'rgatish o'ziga o'zi xususiyatlarini to'la chuqur tadqiq qilishning kalitidir. Dutor o'zining uzoq tarixiy davomida shakliy o'zgarishlarga uchrashi tabiiydir. Bu o'zgarishlar esa dutorni o'rgatish jarayoniga ma'lum darajada ta'sir qilgan. Bu holatlar umuman an'analarni, shuningdek, o'rgatish keyingi davrlarda paydo bo'layotgan usul qoidalar va shakllarni tadqiq qilish vazifasini oldinga suradi.

Dutor chalishga o'rgatish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi.

1) mustaqil kuzatgan holda ko'rish, eshitish orqali va idrok qilish;

2) ko'rish - eshitish yordamida maxsus o'rganish.

Ko'rish-eshitish orqali idrok qilish, ilgari to'ylarda asosan erkaklarning maxsus yig'inlari "to'qma", "gapgashtak", "ziyofat", "o'tirishma", "mexmonxona bazmi" kabilar sodir bo'lgan.

Dutor chalishning dastlabki malakalarini mustaqil egallash uchun shogirdan alohida qobilyat, nozik musiqiy xotira, utkir eshitish va kuzatuvchanlik salohiyati talab egiladi.

Ushbu o'rganish bosqichida shogird qo'lida cholg'u sozi - dator bo'lmaydi. U faqat qunt bilan kuzatadi va ohanglarni tinglab boradi. Ustoz chalish mashqlari chog'ida qo'l va oyoq paylari bo'g'imlarini tarang qilmasdan panja va barmoqlarning erkin harakatlanishi zarurligini shogirdga amalda ko'rsatadi va ko'nikma hosil qiladi. Buxorocha maktab usulida ustoz chalish paytida dator qopqog'i yonida qarsillash paydo bo'lmasligi uchun shogirdini o'z qo'li yuqori pardalariga yaqin joyda harakatlantirish asosida tovushlarga qarab nazorat qiladi.

Dastlabki mashg'ulotlarda hamma shogirdlar ham dator sozini sozlab olishni ilg'ab ololmaydi, shu boisdan buni ustozining o'zi saboqlar boshlanishidan, oldin bajarib qo'ygani maqsadga muvofiq. Dutorni sozlash chog'ida shogird, harakatni o'rniga qo'yishni mashq qiladi. Uning ayrim harakatlari o'z o'rnida qo'llanilmaganligini bilish uchun o'ng qo'l boshbarmog'i bilan dator chertilib, chap qo'l yordamida ayrim pardalar bosib chertilib chap qo'l yordamida bosib yuboriladi. Yoki o'ng qo'lning nomsiz barmog'i bilan dutorning II pardasiga ohista tegizib

ko‘riladi va (torni parda yuzasiga tekizmasdan) flajolet hosil qilinadi. Natijada II parda balandligidagi sof tovush hosil bo‘ladi. Basharti II parda (yoki tegishli 12 tovush) flajoletdan pastrok jaranglasa xarrak oldinga, yuqori jaranglasa orqaga surib qo‘yiladi.

Mirzajon Tillayev (andijonlik), Saidxo‘ja Xoldorxo‘jayev (namanganlik), Boqi Ashurov (buxorolik) va Yusuf Jabborov (xorazmlik) singari dutorchilarning fikriga qaraganda, shogird o‘rganishning bu bosqichida bir necha o‘nlab mashg‘ulotlardan so‘ng dutorni o‘zi mustaqil ravishda sozlashga o‘rganib ko‘radi, buni hamma shogirdlarning birvarakayiga eplay olishi amrimaholdir. Yuqorida nomlari keltirilgan ustozlar o‘zlarining ko‘p yillik tajribalariga asoslanib, o‘zlarining bir necha mashqlardan keyin ham cholg‘u asbobini “ha” deganda sozlashga muvofiq bo‘lmagan shogirdlarning xafsalasini pir qilmaslik uchun ahamiyatiga tegmaydigan muomalada bo‘lish samarali natijaga erishish garovidir deb ta’kidlashadi. Ular shogirdlar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan konkret nuqsonlarni tahlil qilib ijro etiladigan har bir kuyning taqdiri cholg‘u asbobining sof sozlashga bog‘liq ekanligini aniqlashtirish, tiniq sadolanishi ijrochi naqaratotining darajasini belgilovchi mezon ekanligini shogirdlar ongiga singdirish g‘oyat muhim, deb hisoblamaydilar.

Muhim mezonlardan yana biri ustoz torlarda tovushlar hosil qilish sifatiga alohida e‘tiborni jalb etishidir. Ta’lim berishning ibtidosidayoq shogirdga aniq; torlarni o‘ng qo‘l barmoqlari bilan ikki torga ayni paytda ustidan va ostidan beriladigan oddiy zarblar o‘rgatiladi. Bu vositada, shuningdek eng oson va keng qo‘llaniladigan usul ko‘rsatkich va bosh barmoq chertishi ya’ni, “yakka zarb” mashqidir.

Bunda ustoz shogirdining o‘ng qo‘l panjasini erkin bo‘lishiga erishmog‘i lozim. Shogirdga dastlabki paytlarda tovushlarni balandligidan qat’iy nazar, ularning jaranglash davomiyligi nisbatini tushuntirish muhimdir. Ochiq torlarda bu usul obdon mashq qilinib, ancha ko‘p qo‘llaniladigan bilak zarb mashqiga, ya’ni jimjiloq, so‘fi barmoq, o‘rta va ko‘rsatkich barmoqlar, bilan birvarakayiga chertishga o‘tiladi.

Ustoz shogirdlariga o‘zini tutish va ijrochilikda o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Har bir yangi asarni o‘rganish davomida u mashqning uslubini o‘zgartira boradi. Ayniqsa, mustaqil mashg‘ulotlar boshlangan paytlarda shogirdning ijodiy rivojlanishi davrida o‘zining pedagogik jihatlarini erkin namoyon qilishi kerakligi uqtirib boriladi.

Mashg‘ulotlar jarayonida o‘rganilgan asarlarni takrorlash ijrochilik apparatining texnik imkoniyatlarini boyituvchi, xotirani mustaxkamlovchi va bir vaqtning o‘zida ijrochining o‘z - o‘zini nazorat qiluvchi omildir.

Dutor chalishning an’anaviy usullarini bekamu-kusg egallab olgan mohir ijrochilar fikriga qaraganda, applikatorasi asosan turt barmoqdan iborat bo‘lib, ijroda jimjiloq ishtirok etmaydi.

Dutor chalishda zarblar mavjud bo‘lib ular sakkizta:

Yakka zarb; Bilak zarb; Chertmazarb; Chimdib chalish; Terma zarb; **Qo‘sh** zarb; Teskarizarb; Ufori zarb deb nomlanadi.

Bu zarbdan yakka zarbni olsak “P” pastga jimjiloq bilan 2- barmoq va o‘rta

barmoq bilan urib sadolanishi.

“V” yuqoriga bosh barmoq u bilan sadolash “II” panja “B” bosh barmoq. Zarblarning asosiylari besh xil bo‘ladi: 2 ta katta zarb, 2 ta kichik zarb va tanovor zarbi.

Dutorchilar orasida “dutor chalish uchun dutorda qalb bo‘lishi kerak” degan qadimdan qolgan naql bor. Shogirdlik ta’limini egallab mustaqil ijrochilik faoliyatini boshlagan har bir dutorchi bu naqlni esda tutishi lozim. Dutor chalish an’anasiga qat’iy rioya qilib ijrochilik mahoratini an’anaviy maktab izidan olib borgan dutorchigina shinavandalar qalbini o‘ziga rom qilishi mumkin.

Ustoz – ruhshunos, dono murabbiy, yetuk ijrochi bo‘lmog‘i darkor. Bundan tashqari u o‘zining axloqi, estetik sifatlari bilan faqat ijrochigina emas, balki bulgusi o‘rinbosarni tarbiyalaydi. Dutorchi shogirdni tarbiyalash degani bo‘lg‘usi ustozni tarbiyalash demakdir. Ustoz - shogird munosabatlari masalasi qadimgi ustozlardan og‘zaki uslub an’analarning uzviy davomi bo‘lib, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi.

An’anaviy dutor ijrochiligining kelajagi uchun kadriyat-larimiz qayta tiklanayotgan vaqtda qanday qo‘llanilishiga qarab belgilanadi. Dutorchini ustozini o‘rgatish uslubini an’analari umuminsoniy va umumbashariy tarbiya bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilganidir. Bu an’analar yuksak badiiy natijalarga erishish uchun ishlatilayotgan mustaqil yaratuvchi ijodkor shaxsini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ustozining eng muhim vazifalaridan biri shogirdni badiiy - musiqiy asarlarni mustaqil tahlil qilish va ularni xalqning estetik talablari darajasida ijro etishga o‘rgatishdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. – T.: O‘qituvchi. 1997. – B.384.
2. Asilov M.A., Vasilyev F.N.. Dutor darsligi. – T.: O‘qituvchi. 1977. – B 118.
3. Беляев В.Н. Музыкальные инструменты Узбекистана. – М., 1986.
4. Vizgo T.S. O‘rta Osiyo cholg‘ulari. Tarixiy ocherk. – M., 1980.
5. Jomiy A. Musiqa haqida risola. – T., 1960.
6. Karomatov F. O‘zbek cholg‘u musiqasi. – T.: Meros. 1972.
7. Rajabiy Y. O‘zbek xalq musiqasi. I tom. – T.: Adabiyot va san’at. 1955.
8. Rasultoyev J.K. O‘zbek dutor ijrochiligi. – T.: O‘qituvchi. 1997.
9. Xudoyev G‘.M. G‘ijjak cholg‘usi ijrochilik an’analari. – T.: Muharrir. 2014. – B.164.

“BAXSHI” MUSIQALI TEATRI

O. OMONJONOVA,

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi talabasi

Ilmiy rahbar: **Ch.E. ERGASHEVA, dotsent, PhD.**

Doston – o‘zbek xalq ijodi va mumtoz musiqasining yirik epik janri bo‘lib o‘ziga xos mavqeyi, mazmuni, shakli, ichki qonuniyatlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Xalq dostonlarida epik tasvir ko‘pincha nasr (so‘z) bilan, lirik